

**XADICHA SULAYMONOVA – HUQUQSHUNOS, OLIMA,
DALAT ARBOBI**

Sodiqjonova Sevinch

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoiy odil sudlov” fakulteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonovaning oilasi, nima uchun huquqshunos kasbini tanlaganligi, o‘ziga xos salohiyati, amaliyot bilan nazariyani birdek olib borganligi, xalqaro ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etganligi, o‘z mehnati bilan erishgan unvonlari haqida ma’lumot berilgan.

Kirish so‘zlar: Andijon, jinoyat huquqi, dotsent, direktor, dissertatsiya, xalqaro ilmiy anjumanlar:Amsterdam, Tokio.

Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyul kuni Andijon shahrida tavallud topgan.Otalarining ismi Sulaymon Kelginboyev, Onalarning ismi Otincha bo‘lgan.Xadicha Sulaymonova oilada uchinchi farzand edi.Uning akasini ismi Yusufjon, opasining ismi Mo‘tabar, ukasining ismi Niyozbek va singlisining ismi Gulbahrom edi.Xadicha Sulaymonova akasi, opasi va ukasi bilan birgalikda rus maktabiga borgan.1926-yil O‘zbekistonda xotin-qizlarning ozodligi uchun “Hujum” harakati o‘tkazila boshlangan.Paranjisini tashlagan ayollar sinfiy dushmanlar tomonidan o‘ldirilgan.Ayniqsa, 1929-yildagi Marg‘ilonda Nurxon o‘ldirilganligi haqidagi xabar barchaga ta’sir etgan.Nurxon xonanda bo‘lishni xohlardi, uning sahnaga chiqishi mulla va eshonlar tomonidan aslo kechirilmas edi.Ular Nurxonning akasini qo‘liga xanjar berib, Nurxonni o‘ldirishga da’vat qilishgan.Nurxon o‘z akasi tomonidan o‘ldirilgan.Marg‘ilonda Nurxonning fojiasiga bag‘ishlangan ochiq sud bo‘ldi.Unda o‘n yeti yoshli Xadicha Sulaymonova ham qatnashgan edi.Jamoat qoralovchisi Tojixon Shodiyevaning nutqi Xadicha Sulaymonovaning yuragigacha yetdi, u Tojixondek bo‘lishni o‘ziga maqsad qildi, shu bilan Xadicha Sulaymonova huquqshunos bo‘lishga qaror qildi.

1931-1935-yillar Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutinin tayyorlov kursida, so‘ngra Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq institutining huquq fakultetida o‘qigan.Xadicha Sulaymonova o‘sha vaqtda o‘quv materiallar bilan birga huquq faniga oid kitoblarni qayta-qayta o‘qib, konspekt qilar edi.U o‘z oldiga huquq fanlari sohasidan jinoyat huquqi mutaxassisi bo‘lishni aniq maqsad qilgan edi.G.M.Arenberg Xadichaning o‘qishi haqida qayg‘urar, talabalarning jinoyat huquqi to‘garaklaridagi qizg‘in bahslarda uning salohiyati boshqa talabalarnikidan ajralib turishi Arenbergni zavqlantirardi.

Xadicha Sulaymonova institutni tugatgan so‘ng xalq sudyasi sifatida ish boshlagan. Keyin esa respublika Oliy sudi a‘ziligiga saylangan. u yigirma ikki yoshida berilgan ishonchni oqlagan. Sudda haqiqatni aniqlash qiyin bo‘lganida Xadicha Sulaymonova O‘zbekiston SSR Oliy sudining raisi E.M.Udrisga murojaat etib, maslahatlar so‘ragan. Oliy sudi a‘zosi bo‘lganida qonundan chetga chiqib, hukm hech qachon qabul qilmagan. Bu esa xalqning sudyalari faoliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlagan. Oliy sudda ishlagan vaqtida nafaqat amaliy, shuningdek nazariy tajribalarini ham oshirgan.

U 1938-yil sentabrda Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant bo‘lib kiradi va unga SSSR Fanlar Akademiyasining muhbir a‘zosi, professor A.N.Traynin ilmiy rahbarlik qilgan. 1945-yilning avgustigacha Toshkent davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasida dotsenti vazifasini bajargan. 1945-yil 20-iyulda SSSR Adliya komissarligi huzuridagi BUtunittifoq yuridik fanlar institutida “Harbiy intervensiya va garjdanlar urushi davrida O‘zbekiston SSRning jinoyat qonunlari” nomli dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu yilning sentabr oyidan Toshkent davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasida mudiri etib tayinlangan. Xadicha Sulaymonova doktorlik dissertatsiyasini ham yozmoqchi edi, shuning uchun uni ikki yilga SSSR Fanlar Akademiyasi huquq institutiga yuborilgan. Xadicha Sulaymonova 1950-yil 29-dekabrda Sovet O‘zbekistoni jinoyat huquqi tarixiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O‘zbek ayoli tomonidan dissertatsiya himoya qilinishi O‘zbekistonda huquqshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Sulaymonova juda ko‘p adabiyot, normativ akt va hujjatlar manbalarini o‘rgangan. O‘zbekistonda sovet jinoyat huquqi va sudi tarixini yaratgan birinchi qaldirg‘ochdir. 1954-yil sentabrda Xadicha Sulaymonova Toshkent davlat yuridik institutining direktori etib tayinlangan, shu yilning dekabrda O‘zbekiston SSRda respublika Oliy Soveti Prezidiumi unga “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvonini bergan.

Xadicha Sulaymonova xalqaro ilmiy anjumanlarda faol qatnashgan. 1956-yilning avgustida Amsterdamda o‘tkazilgan sotsiologlarning uchinchi xalqaro kongressida qilgan dokladi uni boshqa davlatlar tanishiga va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishiga yo‘l ochgan. Ushbu kongressda Xadicha Sulaymonova “O‘rta Osiyo sovet respublikalarida oilaviy munosabatlardagi o‘zgarish” mavzusida ma‘ruza qilgan edi.

1960-yilning 8-9-avgustida Londonda jinoyatni oldini olish va jinoyatchi bilan muomala qilish muammolariga bag‘ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan ikkinchi kongressda Xadicha Sulaymonova ham qatnashgan. Kongressda 84 ta davlatlar qatnashgan. Xadicha Sulaymonova jinoyatchilikning o‘sishi sabablarini, O‘zbekistonda iqtisodiyot va madaniyat

sohasidagi yutuqlar jinoyatchilikning kamayishiga sabab bo‘lganligi, sotsializm g‘alabasi haqida ma’ruza qilgan edi.

1961-yilning aprel oyida Osiyo va Afrika mamlakatlari yuristlari xalqaro konferensiyasini chaqirish bo‘yicha tayyorgarlik qo‘mitasining taklifiga ko‘ra Tokioga borgan. U diqqatga sazovor bo‘lgan joylarni tomosha qilgan. Tokiodagi yuristlar jamoatchiligiga SSSR va O‘zbekiston SSRning davlat qurilishi va qonunlari haqida ma’lumot bergan, Xadicha Sulaymonova Yaponiyadagi adliya organlarning tuzilishi va faoliyatini o‘rgangan.

Xadicha Sulaymonova og‘ir va uzoq kasallik natijasida 1965-yilning 26-noyabrda vafot etgan. Vafot etishidan oldin Xadicha Sulaymonova shunday degan edilar: Menga yana bir yillik umr kerak edi, shu umrni ilmiy faoliyatga bag‘ishlagan bo‘lar edim...”. Xadicha Sulaymonova qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, juda nuhim ishlarni amalga oshirgan, ular hayotini O‘zbekistonni rivojlantirish uchun o‘tkazganlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. X.S. Sulaymonova ijtimoiy va ilmiy xizmatlari uchun ikkita “Hurmat Belgisi” ordeni, “Ulug‘Vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun” medali, O‘zbekiston Oliy Sovetining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Azimjonova Sabohat aytganlaridek, Xadicha Sulaymonova xalqimizning chin qalbdan e‘zozlagan yirik davlat arbobi, mashhur olim va jozibali mehribon murabbiy bo‘lganlar. Ular huquqshunoslik sohasini tanlashlari, dissertatsiyalar himoya qilishlari, xalqaro ilmiy anjumanlarda faol qatnashishlari, o‘zlarining salohiyatlarini ko‘rsatishlari albatta, O‘zbekistonning huquq sohasini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shganlaridan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хадича Сулаймонова – хуқуқшунос, олима, давлат арбоби М.Ҳакимов, Ғ.Ахмедов, А.Саидов. –Т.Ўзбекистон, 1993. – 151 б.
2. Уч машҳур ўзбек аёли.-Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. -214 бет.